

**“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tomonidan 2024-yil uchun yillik korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
UMUMIY HISOBOT**

I. “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - Aksiyadorlik jamiyati)ning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

Aksiyadorlik jamiyatning 2024-yil 29-yanvardagi 09-sonli buyrug‘i bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi” tasdiqlangan. Ushbu dasturga muvofiq yanvar-fevral oylarida Aksiyadorlik jamiyatining barcha tarkibiy bo‘linmalarini korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash yuzasidan auditdan o‘tkazildi. Aksiyadorlik jamiyati muhiti (Kontekst), manfaatdor tomonlarning talablari, xavflar va imkoniyatlarni belgilab olindi. Manfaatdor tomonlarning aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi menejment tizimiga (KQKMT) ta’sirini aniqlandi. Manfaatdor tomonlarning talablari, xavflar va imkoniyatlar belgilandi. Xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha e-antikor.uz platformasi funksiyalar doirasida to‘ldirilib jo‘natish amalga oshirildi. Dastur doirasida manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyalar **3762 nafar** xodim tomonidan to‘ldirildi.

Jamiyatning boshqaruv apparatida 30 dan ortiq boshqarma va bo‘limlarda hamda mustaqil bo‘lmagan 7 ta hududiy tarkibiy bo‘linmalar (markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyalar, Laboratoriyalar) kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari amalga oshirildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

2024 yil 19 fevraldagi 17-son buyruq bilan “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” yangi tahrirda tasdiqlandi. Bundan tashqari Aksiyadorlik jamiyatida “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati (*Kuzatuv kengashining 2023 yil 25 maydagi 6-son Bayonnomasi*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom (*2022 yil 14 yanvar kunidagi 7-son buyruq*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati (*Kuzatuv kengashining 2023 yil 4 avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 2-ilova*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti (*2022 yil 14 yanvar boshqaruv raisi tasdig‘i*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma (*2022 yil 17 yanvar boshqaruv raisi tasdig‘i*), “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida

kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma (2021 yil 30 noyabr kunidagi 46-son buyruq), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (2022 yil 10 fevral kunidagi 15-son buyruq), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti (2022 yil 23 yanvar boshqaruv raisi tasdig'i), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakillantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom (2022 yil 01 fevral boshqaruv raisi tasdig'i), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti (2022 yil 7 fevral boshqaruv raisi tasdig'i), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida sovg'alar berish va olish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha Siyosati (2022 yil 31 avgust kunidagi 102-son buyruq 4-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish Siyosati (2022 yil 31 avgust kunidagi 102-son buyruq 5-ilovasi), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida Xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirish Siyosati (Yagona aksiyadorning 2023 yil 5 iyuldagi 94/09-30-qr-son qarori), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi (2023 yil 29 mart kunidagi 49-son buyruq), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish Siyosati (Kuzatuv kengashining 2023 yil 4 avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 3-ilova), Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom (2022 yil 28 oktabr kunidagi 127-son buyruq), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati markaziy apparatining fuqoroviy-huquqiy tisdagi shartnomalar bo'yicha ijrosini tanlash tartibi (2022 yil 26 oktabr kunidagi 125-son buyruq, 1-ilova), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining rotatsiya to'g'risidagi nizom (2022 yil 26 oktabr kunidagi 125-son buyruq, 2-ilova), "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Axloq Kodeksi (Kuzatuv kengashining 2023 yil 4 avgustdagi 01-2023-son majlis qaroriga 1-ilova)lari ishlab chiqilib tasdiqlangan va ushbu ichki normativ-huquqiy hujjatlar Aksiyadorlik jamiyati hamda uning tarkibiy bo'linmalari ish faoliyatiga tadbiq etilgan.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruv sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 20-fevraldagi 04-07/1139-sonli topshiriq xatiga muvofiq xavf-xatarlarni baholash bo'yicha e-antikor.uz platformasi funksiyalar doirasida to'ldirilib jo'natish amalga oshirildi. Jumladan, **30 ta** funksiyalarda doirasida

xavf-xatarlar baholanib, ulardan **7 tasi** “Yuqori”, **9 tasi** “O‘rta” va **14 tasi** “Past” darajada qayd etilgan. 2024 yil 17 may kuni mazkur xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha 16 banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlangan. (PQ-81-son, 1-ilova 2.2. va 2.3-bandlari). Joriy yilning 25 dekabr kuniga mazkur Dasturning jami **16 ta** tadbirlar bajarildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Dastur doirasida manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyalar **3762 nafar** xodim tomonidan to‘ldirildi. Jumladan, Markaziy apparatda **142 nafar**, “Qizilqum” MGQE da **878 nafar**, Markaziy laboratoriyada **82 nafar**, “Samarqand” MGQE da **852 nafar**, “Toshkent” MGQE da **620 nafar**, “Xisor” MGQE **474 nafar** “Regional” MGTE **678 nafar** xodimlar. Hozirgi kunga kelib to‘ldirilgan deklaratsiyalarda yuzasidan **42 ta** potensial (ehtimoliy) manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Joriy yilning 15-aprel sanasida bo‘lib o‘tgan axloq komissiyasining xulosasiga ko‘ra aniqlangan holatlarda haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emas deb hisoblanib, potensial manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha qabul qilinadigan barcha qarorlar (*mukofotlash, lavozim ko‘tarilishi va boshqalar*) jamoaviy shaklda amalga oshirilishi belgilab olindi.

Kon-geologiya vazirligi tomonidan 2024-yil 12-sentyabrda 36-3403-sonli xat asosida taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Jamiyatning **16 nafar** xodimlari (*shundan 3 nafari “Regionalgeologiya” DM xodimi*) **17 ta** tadbirkorlik sub’ektlarida rahbar yoki o‘z ulushiga ega ekanligi natijasida manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaruvchi vaziyat yuzaga kelgan. Ushbu holat yuzasidan **16 nafar** xodimlarga bir oylik muddatda yuqoridagi holatlarni bartaraf etish yuzasidan ogohlantirish xatlari berildi ham **13 ta** holat bartaraf etilib qolgan qismi bartaraf etish jarayonida.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini aksiyadorlik jamiyati shartnomalariga kiritish

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2024-yil davomida xaridlar sohasida jami **1932 ta** shartnomalar rasmiylashtirilgan. Shulardan:

- elektron do‘kon – **1194**;
- korporatsion birja – **406**;
- auksion – **270**;
- spot – **9**;
- tanlov – **39**;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri – **14**.

Barcha tuzilgan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritilgan. Korrupsiyaga qarshi bandlarni kiritishni rad etish holatlari mavjud emas.

Kontragentlarni tekshirish

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2024-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida

shartnoma imzolangan **14 ta** tog'ridan-to'g'ri **86 308 727 600** so'mlik, **39 ta** eng yaxshi tanlov orqali **62 953 632 596,12** so'mlik tuzilgan shartnoma yuzasidan **53 ta** kontragentlar tekshirishdan o'tkazilib, ularda korrupsiyaviy holatlar (manfaatlar to'qnashuvi) aniqlanmadi. To'g'ridan to'g'ri yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga hamda eng yaxshi tanlov bo'yicha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha bandlari kiritilishi yo'lga qo'yilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Hisobot davrida **26 ta ish o'rniga** jami **80 nafar** nomzod tanlovdan o'tkazildi. Shundan **26 nafari** ishga qabul qilinib, nomzodlar kompleks tekshiruvdan o'tkazilib hulosalar berildi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Aksiyadorlik jamiyatning 2024-yil 29-yanvardagi 09-sonli buyrug'i bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi" ining 9-bandiga muvofiq Aksiyadorlik jamiyatining boshqarma, bo'lim hamda tarkibiy bo'linmalarda o'qitish rejasi ishlab chiqilgan.

2024-yilning 24-30-aprel kunlari Samarqand viloyat IIBB xodimi hamda Samarqand MGQE rahbariyati va xodimlari ishtirokida **8 ta** o'quv seminarlari tashkil etildi. Bundan tashqari ushbu MGQE da Samarqand viloyat IIBB bilan hamkorlikda Korrupsiyaga qarshi **11 ta** huquqiy targ'ibot hamda **1 ta** profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Bundan tashqari, Boshqaruv raisi hamda uning o'rinbosarlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari ishtirokida jami **20 nafar** boshqaruv apparati xodimlari O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" gi Qonun mazmun mohiyati yuzasidan o'qitilib, o'quv kursi yakuni bo'yicha sertifikatlarni qo'lga kiritdi.

O'quv seminarlari, targ'ibotlar hamda profilaktik tadbirlar davomida jami **388 nafar** rahbar va xodimlar qamrab olindi.

2024-yilning 15-avgust, 16, 27-avgust sanasida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonun" mazmun mohiyatiga bag'ishlangan **3 ta** o'quv seminar hamda targ'ibot tadbirlar o'tkazildi.

O'quv seminarlari, targ'ibotlar hamda profilaktik tadbirlar davomida jami **140 nafar** rahbar va xodimlar qamrab olindi.

Shuningdek boshqaruv apparati va tarkibiy bo'linmalarda **116 ta** o'quv seminarlari, **9 ta** targ'ibot tadbirlar o'tkazildi.

O'quv seminarlari va targ'ibotlar tadbirlar davomida jami **1023 nafar** xodimlar qamrab olindi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi, birinchi bo'lim va bosh geolog ishtirokida "O'zbek geologiya qidiruv" AJ xodilari tomonidan tijorat va xizmat sirlaridan foydalanish, saqlash rejimiga rioya etishi bo'yicha **4 ta** targ'ibot tadbirlari tashkil etilib **182 nafar** xodim qamrab olindi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali tarkibiy bo'linmalar kesimida 2 ta bir turdagi, ya'ni Tarkibiy bo'linmalar xodim va ishchilaridan 50 kg (oldin 35 kg)dan metallolom topshirish yoki 140 mingdan uchastka, bo'lim boshliqlariga pul yig'ish majburiyatini qo'yilayotgani, holbuki metallolom topshirish yoki uning uchun pul yig'ilish xodimlar tomonidan amalga oshirilishi bo'yicha anonim xabar kelib tushgan.

Xabarlar bo'yicha Aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalaridagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiquvchi Ishchi guruh tomonidan holatlar mingdan ortiq ishchi-xodim a'zo bo'lgan telegram kanalida anonim so'rovnoma o'tkazildi.

Xabarning anonimligi va tegishli dalil, hujjatlar mavjud bo'lmaganligi sababli Ishchi guruh tomonidan tarkibiy bo'linmalarining rahbar xodimlari ishtirokida videokonferensia aloqa ko'rinishida yig'ilish o'tkazilib ularga qora va rangli metall parchalarini yig'ib topshirish rejalarini topshirish bo'yicha qat'iy topshiriqlar berildi, xodimlardan bu bo'yicha majburlov va pul yig'ishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tushuntirildi. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga ogohlantirishlar berilib Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tomonidan yillik dastur doirasida tarkibiy bo'linmalarga uyushtirilgan xizmat safarlari davomida ishchi-xodimlar ishtirokida takroriy anonim so'rovnomalar olish orqali monitoringni olib borish, monitoring natijalariga ko'ra tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga jiddiy choralar ko'rilishi belgilab olindi.

VII. Monitoring va nazorat

Aksiyadorlik jamiyatning 2024-yil 29-yanvardagi 09-sonli buyrug'i bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi" tasdiqlangan. Ushbu dasturga muvofiq hamda yanvar-fevral oylarida Aksiyadorlik jamiyatining barcha tarkibiy bo'linmalarini korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash yuzasidan auditdan o'tkazilib, ayrim buyruqlarni Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi bilan kelishmaslik, ishga qabul qilingan xodimlarni Aksiyadorlik jamiyati ichki me'yoriy hujjatlari bilan to'liq tanishtirilmaganligi, Xaridlarni muvofiqlashtirish va tahlil qilish boshqarmasi, Monitoring bo'limi, Moddiy texnika'taminot bo'limi, Xaridlar boshqarmasi, Marketing bo'limi, Xaridlar bo'limi va Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish bo'limlarning yillik ish rejasi ishlab chiqilmaganligi aniqlandi.

Yuqoridagi holatlarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilib birinchi chorak yakuniga qadar yakunlandi.

Bundan tashqari, rag'batlantirish va mukofotlar monitoringi o'tkazilib, asossiz rag'batlantirish va mukofot pullari to'lanmaganligi aniqlandi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 12.12.2023-yildagi 17/53-sonli qarori bilan aniqlangan kamchiliklar yuzasidan Aksiyadorlik jamiyatining 18.01.2024-yil 3-sonli buyrug'i bilan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan **3 nafar** Aksiyadorlik jamiyati xodimlariga nisbatan **o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizi** intizomiy jazosi qo'llanildi.

- Aksiyadorlik jamiyati yuridik bo'lim boshlig'ining, da'vo ariza kiritish uchun asos bo'lgan ma'lumotlar noto'g'ri berilganligi sababli 18,8 mln. so'm ortiqcha to'lovlar amalga oshirilganligi yuzasidan bildirgisi hamda Aksiyadorlik jamiyatining 06.02.2024-yildagi 14-sonli buyrug'i asosida xizmat tekshiruvi o'tkazilib **1 nafar** xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimga nisbatan hayfsan intizomiy jazosi qo'llanilgan.

- Aksiyadorlik jamiyatining Xisor MGQE haydovchisining Kon-geologiya vazirligi "ishonch telefoni" orqali yo'llagan murojaati yuzasidan 15.03.2024-yildagi 31-sonli buyrug'i asosida xizmat tekshiruvi o'tkazilib **6 nafar** xato va kamchiliklarga yo'l xodimga nisbatan **o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizi** miqdorida hamda hayfsan intizomiy jazolari qo'llanilgan.

IX. Xulosalar

Joriy yil hisobot davrida 22 ta korrupsiyaga qarshi targ'ibotlar, **17 ta** nazorat tadbirlari amalga oshirilgan. Aksiyadorlik jamiyatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini qoniqarli darajada baholash mumkin.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davriga qadar o'tkaziladigan korrupsiyaga qarshi targ'ibotlar sonini ko'paytirish choralari amalga oshirish lozim.

**Korrupsiyaga qarshi
ichki nazorat bo'lim boshlig'i**

D. Saidaxborov